

G'ijduvon tuman Axborot - kutubxona markazida Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohirqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan bibliografik obzor bo'lib o'tdi.

2026- yil 9-aprel kuni G'ijduvon tuman Axborot- kutubxona markazida Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohirqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan bibliografik obzor bo'lib o'tdi.



Tadbirni Axborot-kutubxona markazi bibliografi olib bordi, unda kitobxonlar faol ishtirok etdilar. Obzor davomida Amir Temurning hayot yo'li uning markazlashgan davlat barpo etishdagi xizmatlari hamda jahon tarixidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berildi. Sohirqironning harbiy iste'dodi, adolatli boshqaruv tamoyillari va ilm - fan hamda madaniyatga bergan yuksak e'tibori alohida ta'kidlandi. Shuningdek, Poyon Ravshanovning " Amir Temur sulolasi" asariga sharx berildi va kitobxonlarga o'qishga tavsiya etildi.



POYON RAVSHANOV

AMIR TEMUR SULOLASI

Fotihlik va vatanparvarlik, ilm va san'at, botirlik va shijoat bilan
tarixda nom qoldirgan shaxs haqida katta kitob



UO‘K : 821.512.162 (09)

R – 13

Ravshanov, Poyon

Amir Temur sulolasi: [Matn] roman / P.

Ravshanov. – Toshkent : yoshlar matbuoti, 2023. –
592 b. - ISBN 978-9943-27-328-3. – (muq.) : 65000
so‘m . – 2000 nusxa.

Sohibqiron Amir Temur va uning Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron va Hindistonda besh asrga yaqin hukm surgan sulolasi benazir katta xonadonni tashkil etadi. Shajaraning bardavomligi bevosita davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan oilaviy tarbiyaga bog‘liqligi, o‘zlikni, sha‘nni, or - nomusni saqlash xalqimizda uzoq asrlar davomida sayqal topgan milliy mentalitet, urf-odatlar, udumlar bag‘rida yetilganligi, ravnaq topganligi Sohibqiron tamal toshini qo‘ygan toj-u taxt vorislari hayot yo‘li misolida keng ko‘lamda tadqiq etildi. Amir Temur va Temuriylar oilasi, ularning fe‘l - atvori, tabiati, shijoati, sifatleri, surat va siyratleri, boshqaruv qobiliyatlari, qusur va zaif jihatlari tarixiy manbalar vositasida oldingi marrada yoritildi, inkishof etildi. Asar shu jihati bilan e‘tiborga loyiqdir.